

SO'NGGI YILLARDA BOLALAR MUSIQA VA SAN'ATI MAKTABLARIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Xalilov Jamshid Xamzayevich

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining Strategik rejalashtirish va metodologiya bo'limi bosh mutaxassisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10654296>

Annotatsiya

O'zbek xalq san'atining betakrorligi, o'ziga xosligi, ohanglarning jozibadorligi bilan kishini o'ziga jalb etadi. Milliy madaniyatimizda musiqa san'atining kichik qalblar orqali aks ettiruvchi o'zbek xalq musiqachiligining hozirgi kundagi bolalar musiqa va san'at maktablarining faoliyati, uni tashkillash jarayonida uchrayotgan muammolar madaniyat sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: O'zbek xalq musiqasi, ijrochilik, bolalar musiqa va san'at maktablari, kompozitor, ansambl, repertuar.

Madaniyat deb insonlardan ijodiy faoliyat tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasiga aytiladi. Madaniyat atamasi hozirgi zamon ilmiy adabiyotida rang-barang ma'noni anglatadi. U lotincha "ishlov berish, parvarish qilish" ma'nosini anglatadi, keyinchalik "ma'rifatli bo'lish, tarbiyali, bilimli bo'lish" mazmunida ishlatiladi. O'zbek tilida ko'p ishlatiladigan "madaniyat" atamasi arabcha "madaniy" - "shaharlik" degan ma'noni anglatadi. Madaniyat insonni tolaqonli faoliyati "Inson tomonidan yaratilgan muhit", jamiyat yaratgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmuidir. Madaniyat tushunchasi XX asrga kelib ijtimoiy va gumanitar fanlar tizimidan o'rin oldi.

Bugungi kunga kelib san'at va madaniyat sohasiga bo'lgan e'tibor siyosat darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyevning 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ 112-sonli qaroriga asosan 2023/2024 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish maqsadida kamida uchta milliy cholg'uda ijrochilik ko'nikmasini egallash belgilandi. Ushbu qarorga muvofiq bolalar musiqa va san'at maktablarida ham yangi natijalarga erishishni yuqori darajaga ko'tarish muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda cholg'u ijrochiligida jamoa bo'lib ijro etishni yo'lga qo'yish, yakka tartibda kuylash yoki o'z ijod na'munalari orqali dillarni xushnud qiluvchi taronalarini o'rganish va tadbiq qilish ya'ni o'zbek xalq bolalar musiqa va san'at musiqa maktablari faoliyatini rivojlantirish dolzarb muammolardan biridir.

Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga ko'ra, ularning ijodiy imkoniyatlarini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan musiqa (fortepiano, torli cholg'ular, estrada cholg'u ijrochiligi, xalq cholg'ulari, damli va zarbli cholg'ular, an'anaviy cholg'u ijrochiligi, an'anaviy xonandalik, akademik xonandalik, estrada xonandaligi) va san'at (xoreografiya, teatr san'ati, tasviriy va amaliy san'at) yo'nalishlarida faoliyatini amalga oshiradi.

Bolalar musiqa va san'at maktabida o'quvchilarga ta'lim berish yakka tartibda yoki bir xil yoshdagi va turli yoshdagi bolalar guruhlarida ularning qiziqishlariga ko'ra bir yoxud bir necha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Ushbu kesimda bolalar musiqa va san'at maktablarida milliy vokal-xor ijrochiligi masalalari muammosining dolzarb ekanligini alohida ta'kidlash zarur deb hisoblaymiz.

O'zbekistonning musiqa san'atida ommaviy ijro an'anasi, xususan, jamoa bo'lib kuylash ijrochiligi tarixan chuqur ildiz otganligi ma'lum. Bu kasbiy ijroda ham, havaskorlik yo'nalishida ham kuzatib kelingan. Mustaqillik davriga kelib vokal-xor ijrochiligi san'ati turli shakllar, uslub va ko'rinishlarda o'z yo'lini davom ettirdi. E'tiborli tomoni shundaki, bu yo'nalishdagi ijrochilikka turli yoshdagi bolalar (boshlang'ich va o'rta sinf maktab bosqichi, maktabdan tashqari ta'lim tizimi va hokazo) jalb etilganligiga qaramay, vokal-xor ijrochiligi hali ham o'zining mustahkam o'rniga ega emas.

O'zbekiston madaniyati rivoji davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi hamda hukumat va jamoat tashkilotlari tomonidan ommaviy ijroga e'tibor yil sayin tobora kuchayib kelayotganligini nazarda tutib, yosh avlodga milliy vokal-xor ijrochiligi an'alarining davomiyligini keng targ'ib etish orqali tarbiyalash, milliy va jahon musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazish, bolalarda musiqa madaniyatini shakllantirish – bolalar musiqa ta'limi, xususan xor ijrochiligining muhim masalalaridan deb hisoblaymiz.

“Bolalar musiqiy madaniyati” tushunchasi keng qamrovli bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bolalarning ijtimoiy-badiiy shaxsiy tajribasi – ahloqiy estetik qarashlari, hissiyotlari, did va ehtiyojlari;
- bolaning musiqiy rivojlanganligi – musiqa san'atiga qiziqishi, musiqaga emotsional munosabati, musiqiy kuzatuvchanligi, tinglash madaniyati va turli xil badiiy musiqa namunalariga bo'lgan ehtiyoji;
- bolaning musiqiy bilimlari – musiqani idrok va ijro etish uchun lozim bo'lgan tasavvur, bilim, malaka va ko'nikmaga ekanligi, san'at va hayotga hissiy munosabati, rivojlangan musiqiy-estetik didi, musiqaga bo'lgan tanqidiy saralash munosabati va h.k.

Bolalarda musiqa madaniyatini shakllantirish maqsadida musiqiy ta'lim-tarbiyani hayotiy talablar bilan bog'lab olib borish; bolalarning musiqa-xor san'atiga mehr, qiziqishini o'stirish; musiqiy-badiiy didni, musiqa haqida bilim, malakalar doirasini tarkib toptirish; bolalarda milliy vokal-xor ijrochiligiga ehtiyojni rivojlantirish; cholg'u va qo'shiq ijrochiligi jarayonida nota savodxonligini amalga oshirish (o'z partiyasini notaga qarab kuylay olish); iqtidorli bolalarning musiqiy rivojlanishlari uchun sharoit yaratib berish va ulardagi qobiliyatni o'stirish; xor asarlarining badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida bolalarda ahloqiy-estetik qarashlarni tarbiyalash kabi qator vazifalar belgilanadi. Bu vazifalarni hal etish borasida ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan bir necha masalalar va muammolarga e'tiborni qaratishni lozim deb hisoblaymiz. Bular:

- respublikada xor janrlarining yangilanish uslublari, sintez janrlarning paydo bo'lishi hamda o'zbek kompozitorlari xor ijodiyotida yaratilgan asarlarning mohiyati, musiqiy tili, dramaturgiyasi, ijro yo'nalishi va darajasi;
- sohaga oid amaldagi mavjud va yangi tajribalar tahlil va tadqiq etilishi, xalqona va milliy kuylashning zamonaviy uslub va usullarini qo'llash yo'llarini belgilash.

Kuy-qo'shiq kishilarning shaxs bo'lib ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishi va yashashi uchun tarixan asosiy ruhiy, ma'naviy omil hisoblanib kelingan. Shunday ekan, jamoa ijrosida qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati, ta'sirchanligi yanada kuchayadi va albatta, jamoa-xor ijrochiligi bolalar tarbiyasida eng yuqori o'rinlarda turishi lozimligi hech shak-shubhasizdir.

Vokal-xor ijrochiligi yoshlar badiiy faoliyatining eng ommaviy shaklidir. Ularning barcha yosh guruhlarini jadal badiiy faoliyatga va umumlashuvga chorlaydi. Jamoa bo'lib kuylash yosh avlodni xalq qo'shiqchiligi merosiga, shuningdek, milliy, yevropa klassik musiqa durdonalariga qiziqish tug'dirib birlashtiradi hamda ahillik va birdamlikka chaqirib, ulardagi ba'zi bir fiziologik, psixologik nuqsonlarni bartaraf etishda ham yordam beradi.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, musiqa va san'at yo'nalishi bo'yicha oliy ta'limda malakali kadrlarni tayyorlashning asosiy mezon, bu ta'limning oldingi bosqichlariga, ya'ni bolalar musiqa va san'at maktabidagi mavjud yo'nalishlardagi o'quv jarayoni sifatiga bog'liqdir. Shunday ekan, oliy ta'lim professor-o'qituvchilari bolalar musiqa va san'at maktabi bilan integrallashgan o'quv kurslarini tashkil etish lozim.

Bundan tashqari, bolalarda musiqa va san'at maktablarida o'qishga qiziqtiruvchi noodatiy darslar faoliyatini ham yo'lga qo'yib, ularning qalbida san'at va musiqa orqali mehr va oqibat tushunchalarini singdirilishi ham ayni muddao bo'ladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son qarori.
2. Краснощёков В. Вопросы хороведения. – Москва: Музыка, 1969. – 224 стр.
3. Gordon Lambconnexions. Choral Techniques. – Rice University, Houston, Texas.
4. Xo'jayeva M. Umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish metodikasi. T.,2008 10 b.
5. Tashpulatova, D., & Siddiqova, I. (2021, April). A CRITIQUE OF THE VIEW OF ANTONYMY AS A RELATION BETWEEN WORD FORMS. In Конференции.
6. Тошпулатова, Д. Х. (2019). ПОНЯТИЕ И ВИДЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНЦЕПЦИЙ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ. АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНЦЕПЦИЙ. Вопросы педагогики, (7-2), 118-121.
7. Tashpulatova, D. K. K., & Jiyeenbayeva, B. (2023). THE IMPACT OF LEARNING A LANGUAGE ON THE BRAIN FUNCTION. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 310-314.
8. ТАШПУЛАТОВА, Д. PRAGMATIC APHORISMS IN UZBEK AND ENGLISH FEATURE AND THE PRINCIPLES OF THEIR TRANSMISSION IN THE CORPUS. COOTHOШЕНИЕ ПАРАЛИНГВИСТИКИ И РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА В РАЗНЫХ ЛИНГВОКУЛЬТУРАХ.
9. ZZ Azamovna, MUSIC PEDAGOGY SKILLS OF A MUSIC CULTURE TEACHER, European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8 (4)
10. Z Zakirova, SCIENTIFIC BASIS FOR INTRODUCING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC EDUCATION. Theoretical & Applied Science, 69-70
11. ZA Zakirova, ON THE ART OF MUSIC IN TEACHING HISTORY LESSONS TO GENERAL SECONDARY SCHOOL STUDENTS METHODS AND METHODS OF USE OF RESOURCES. Modern Scientific Research International Scientific Journal 1 (9), 22-27.
12. PDZZ Azamovna The Role of Music Art in the Cultural and Spiritual Life of Uzbekistan. Texas Journal of Philology, Culture and History 23, 16-19.
13. Azamovna, Z. Z. METHODS OF USING MUSICAL SOURCES IN THE TEACHING OF HISTORY IN SECONDARY SCHOOLS.